

ZAMONAVIY VA TURK TILSHUNOSLIGIDA PARALINGVIZMLAR HODISASI TALQINI

Annazarova Tamilla

Oriental universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikning paralingvistika sohasi, uning o‘rganilganlik darajasi va jihatlari, tadqiqotlar talab qiluvchi o‘rganilmagan yo‘nalishlari haqida mulohaza yuritiladi. Paralingvistikaning fan sifatida shakllanishi, o‘rganilishi jarayonida yuzaga kelgan tilshunoslik maktablari va bu masalani o‘rganishdagi yondoshuvlari tadqiq etiladi. Insonlararo muloqotning muhim tomonini tashkil etuvchi noverbal muloqotning tildagi ifodalanishi paralingvistik vositalar bilan bog‘liq. Har bir xalqning milliy tarixi, madaniyati, an‘analari, urf-odatlar, mentaliteti va dunyo qarashining mevasi sifatida shakllangan paralingvistik vositalar o‘ziga xos shaklga ega bo‘ladi. Paralingvistik vositalarning dunyo tilshunosligida o‘rganilishi tarixi, ularning talqin va tadqiq etilishining ilmiy asoslarini aniqlash va belgilashga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: paralingvistika, fonatsion, kinetik, grafik, noverbal vositalar, badan tili.

“Paralingvistika” lotincha para (yondosh), lingvo (til) so‘zlaridan olingan bo‘lib, “tilga yondosh”, “til bilan birga qo‘llanuvchi” ma’nosini ifodalaydi. Bu termin ilk marotaba A.Xill tomonidan fanga kiritilgan.¹ Keyinchalik J.Treyger o‘zining tadqiqotlarida uning mohiyatini, substantsiyasini (fanning predmeti, vazifasi, o‘rganiladigan hodisalar mohiyati va boshqalar) belgilab berdi.²

Zamonaviy tilshunoslikda paralingvistik vositalarning uch turi belgilangan: fonatsion, kinestetik va grafik. Fonatsion paralingvistik vositalarga tovush tembri, tezligi, baland-pastligi, pauzalar o‘rnini to‘ldiruvchi tovushlar va nutqni to‘ldiruvchi boshqa melodik hodisalar, talaffuzdagi dialektik, idialektik va ijtimoiy

¹ Yuldashev N. Paralingvistika. Nukus, 2011

² G.Trager. Paralanguage a First. Approximation. // Studies in Linguistics, 1958, №13.

o‘ziga xosliklar kiradi. Kinestetik komponentlarga imo-ishora, qo‘l harakatlari, jest, nutq davomidagi pozitsiya yoki jimlik va boshqalar kiradi. Grafik komponentga esa nutqning matn ko‘rinishida, so‘z, tushuncha, atama, ibora kabi matn elementlariga urg‘u berishga yordam beruvchi grafik shakllar va boshqalar kiradi. Paralingvistik vositalar nutqda qo‘shimcha ma’no kasb etibgina qolmay, balki so‘zlovchi, uning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, xarakter xususiyatlari haqida ma’lumot beruvchi manba deb ham qaraladi. Biroq quyida paralingvistik vositalarga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tahlilida paralingvistik vositalarni yahlit tushuncha tarzida ko‘rib chiqamiz.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, paralingvistik vositalarning to‘laqonli mazmunini faqatgina birgina so‘z bilan ifodalash doimo ham o‘rinli bo‘la olmaydi, negaki uning semantik mazmuni nihoyatda keng va chuqur bo‘lishi mumkin. Demak, paralingvistik vositalar tovush orqali ifodalanadigan fikrning ro‘yobga chiqish jarayonidagi yordamchi vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Aks holda esa ular ma’nosiz harakatlarning ko‘rinishlaridir. Negaki paralingvistik vositalar faqatgina uni qabul qiluvchi adresatga ega bo‘lib, aloqa vositasi sifatida nutqda o‘z aksini topgan taqdirdagina chuqur va keng ma’no kasb etishi mumkin. Ushbu mulohazamiz turk tilshunosligida bir qator muammolarni ilgari surishni talab qiladi. Ular jumlasiga quyidagi masalar kiradi:

- turk tilidagi paralingvistik vositalarni aniqlash va ularni tizimlashtirish;
- paralingvistik va nutqiy vositalarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash;
- paralingvistik vositalarning pragmatik hususiyatlarini nutqning turli ko‘rinishlarida aniqlash;
- paralingvistik vositalarning qo‘llanishida gender va gerder omillarning ta’sirini aniqlash va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharasulova, S. (2023). SEMANTIC-SYNTACTIC FEATURES OF THE ADJECTIVE IN THE SIMPLE SENTENCE IN THE UZBEK LANGUAGE AS THE PRESENT CASE. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(11), 374-376.

2. Sharasulova, S. (2023). SEMANTIC-SYNTACTIC FEATURES OF THE ADJECTIVE IN THE UZBEK LANGUAGE AS A LOCATIVE CASE OF AN ADJECTIVE IN A SIMPLE SENTENCE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 4(10), 36-42

3. Sharasulova, S. (2021). The Subject Of A Qualitative Device In The Sentence Acts As A Secondary Predicate Object In Uzbek Language. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 475-481.

4 Oydin, T. (2023). RUSSIAN NATIVE-MAGA RAHMANI: THE FIRST FEMALE WRITER OF AFGHANISTAN AND HER TADHKIRATS. *Бюллетень науки и практики*, 9(4), 621-626.

5. Oydin, T. (2023). RUSSIAN NATIVE-MAGA RAHMANI: THE FIRST FEMALE WRITER OF AFGHANISTAN AND HER TADHKIRATS. *Бюллетень науки и практики*, 9(4), 621-626.

6. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI, O. V. O., MAXSUS, R., TA'LIM, V. A. Z. I. R. L. I. G. I., DAVLAT, A. N. N. T., & O'ZBEK TILI, V. A. U. 2022 yil 4 noyabr.5. Магжан Сауле. Виды парадействий в языке и исследование невербальных элементов в языкознании. // *Успехи современного естествознания*. –2012. № 2. –С.102-106.

7. Tashmuxamedova, D. (2024). XITOY VA O 'ZBEK TILIDAGI TAQLID SO 'ZLARNING MORFOLOGIK TIPOLOGIYASI. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(9), 148-156.

8. Tashmuxamedova, D. A. Q. (2023). XITOY TILIDA TAQLID SO ‘ZLARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(12), 324-330.

9. Tashmuxamedova, D. A. Q. (2022). DUNYO TILSHUNOSLIGIDA TAQLID SO ‘ZLAR BORASIDAGI LEKSIK-SEMANTIK QARASHLAR TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 21), 65-70.